



SANOAT RIVOJLANISHI VA IQTISODIY O'SISH: SANOATNING RIVOJLANISHINISHA XORIJIY USULLAR HAMDA INVESTITSIYANING O'RNI

Yusupovov Ulug'bek Mamayusupovich
Angren universiteti
Tel: +998936002770
E-mail: U.yusupov@auni.uz

Annotatsiya: O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan innovatsion-investitsion dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning innovatsion investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolada iqtisodiy o'sish hamda bugungi kunda sanoat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, klasterlardan foydalanish hamda taraqqiyot yo'lida innovatsiyaning ahamiyatini hamda natijalari keltirilgan. Bundan tashqari sanoat korxonalarining yillik ishlab chiqarish hajmi va uning umumiy statistik tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat iqtisodiyoti, iqtisodiy o'sish, globallashtirish, statistika, texnologiya, innovatsiya, klaster.

Kirish:

Sanoat inqilobi tarkibiy o'zgarishlarning markaziga qo'ygan sanoatlashtirish ishlab chiqarish va bandlik darajasini izchil oshirdi, bu esa daromadlarning misli ko'rilmagan o'sishiga olib keldi. Demak, sanoat sektorini rivojlantirishga ko'maklashish barqaror rivojlanishga erishishning kaliti bo'lishi mumkin. O'sish va rivojlanish adabiyotlarida ishlab chiqarish mahsulotining o'sishi va YaIMning o'sishi o'rtasida shunchalik kuchli bog'liqlik mavjudligi haqiqatan ham isbotlangan.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan innovatsion-investitsion dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning innovatsion investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha innovatsion investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin¹.

Bizga ma'lumki hozigi kunda kompleks rivojlanishiga erishish, iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish yuzasidan investitsion jozibadorlikni uzluksiz yaxshilab borish – har bir mamlakatdagi iqtisodiy siyosatning eng muhim qismi hisoblanadi.

¹ SANOAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANITIRISHDA XORIJIY USULLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMA VA TAMOYILLARI Gaybullaeva Gulbaxor Maxmudovna Fargona politexnika instituti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7125740>



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida“... mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi¹. Chunki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash hamda mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shunga muvofiq, izchillik bilan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tufayli milliy sanoat salohiyati tobora yuksalib bormoqda.²

Oxirgi ikki-uch yilda ilmiy soha samaradorligini oshirish va tadqiqot va ishlanmalar natijalarini iqtisodiyot va jamiyat tomonidan talab qilingan intellektual mahsulotga aylantirish maqsadida tayyorlangan qator strategik va loyihaviy hujjatlar respublikada ilmiy-innovatsion faoliyat va texnologik platforma g‘oyasini tashkil qilishning klasterli tamoyilini amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Zamonaviy ilmiy-texnologik va innovatsion jarayonni tashkil qilishning samarali vositasi sifatida xronologik jihatdan birinchisi tarmoq tamoyili bo‘yicha idoralararo va fanlararo kooperatsiyaning egiluvchan shakllaridan biri bo‘lgan klasterlar taklif qilindi³.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda sanoat iqtisodiyotining barcha sohalarida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda klasterlardan foydalanish amaliyoti O‘zbekistonda endi tatbiq etish jarayonlari boshlanmoqda. Sanoat iqtisodiyoti rivojlangan ilg‘or xorijiy mamlakatlarda klasterlardan foydalanish o‘tgan asrlarda shakllana boshlaganligi ma‘lum. Bu mamlakatlarda sanoat iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlarida klasterlar shakllangan bo‘lib, ularning qamrovi ba‘zan mamlakatlar chegaralaridan chiqib, mintaqaviy va xalqaro darajaga qadar yetgan. Klasterlar hududlar va tarmoqlararo integratsiyani ta‘minlashning samarali dastagiga aylanib ulgurgan. Shunday ekan, sanoat iqtisodiyoti rivojlangan ilg‘or xorijiy mamlakatlarda klasterlardan foydalanishning ijobiy jihatlaridan foydalanish orqali tajribalarni tadqiq qilish mamlakatda samarali iqtisodiy siyosat olib borishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar sharhi

² M.Sh.AHMEDOVA SANOAT STATISTIKASI

³ Yasheva G. Klasterы v belorusskoy ekonomike. // Nauka i innovatsii. 2012, № 8. S. 34-36. № 9. S. 28-30.



Tarkibiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ichki va xalqaro talabning o'zgarishidir. Nisbatan past daromad darajasida, jismoniy shaxslar daromadlarining katta qismini oziq-ovqatga sarflaydi. Daromad oshgani sayin, bu ulush pasayish tendentsiyasiga ega, ishlab chiqarishga talab esa oshadi. Xuddi shunday, ishlab chiqarishga bo'lgan talab pasayish sur'atlarida oshadi hamda sanoat xizmatlarga talab tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bu ko'pincha juda muhim va ayniqsa rivojlanishning dastlabki bosqichlarida. Bundan tashqari, mahalliy kompaniyalar tashqi raqobatga duch kelganligi sababli unumdorlikni oshirishi mumkin⁴.

Shuningdek, iqtisodchi olim Astanakulov (2020) izlanishlari natijasida sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati tahlilining tashkiliy, uslubiy hamda texnik jihatlarini o'zaro bog'liqlikda amalga oshirish bosqichlarining metodologik sxemasini taklif etgan va investitsiya faoliyati tahlilining turlari bo'yicha asosiy vazifalarni qayd etgan⁵.

Dunyo olimlari jumladan: Alex Kane, Zvi Bodie, Alan Marcus (2011) investitsiya muhiti, uning elementlari, qimmatli qog'ozlar tahlili, hosilaviy qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar portfelini boshqarish hamda risklar tahlili borasida⁶ izlanishlar olib borgan bo'lsa, Subramanyam (2014) esa korxonaning ichki (joriy va uzoq muddatli aktivlarga) va tashqi (qimmatli qog'ozlar, ulushli investitsiyalar, biznes birlashuvlari va h.z.) investitsiyalari tahlilining maqsad, vazifalari hamda uslubiyotini aniq ma'lumotlar bilan ko'rsatib bergan⁷.

"The Cluster Initiative Green Book" tadqiqotlari mualliflari tomonidan o'tkazilgan dunyoning turli mintaqalaridagi 200 ta klaster tashabbuslarini maxsus o'rganish natijalari ko'rsatishicha, innovatsion faoliyat va texno logiyalarni tarqatish klasterlarni tuzish va faoliyatining muhim maqsadlaridan biridir. Uni o'rganilgan klaster tashabbuslarining 75 %ini amalga oshirdi. Bu hududiy klasterlashtirish xo'jalik sub'ektlarining innovatsion faolligini oshirishga olib kelishi haqida xulosa qilish imkonini beradi⁸.

Ishlab chiqarishlar va sanoat tarmoqlarini rivojlangan va kamroq rivojlangan turlarga tasniflash o'rganilayotgan ishlab chiqarishlar faoliyatini tavsiflovchi

⁴ Industrial development and economic growth: Implications for poverty reduction and income inequality Matleena Kniivilä

⁵ Astanakulov O.T. (2020) Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati, -16 b.

⁶ Bodie, Zvi. (2011) Investments / Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus.—9th ed. p. cm.—(The McGrawHill/Irwin series in finance, insurance and real estate), P.994

⁷ Ibragimov A.K., Karimov A.A. (1999) Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. - T.: O'zbekiston, - 144 b.

⁸ Solvell O., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative Green Book, 2003. [Elektronnyy resurs: http://www.cluster-research.org](http://www.cluster-research.org).



absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar va joylar yig'indisi usulini qo'llagan holda hisoblab chiqiladigan yalpi mezon asosida amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar

Buyuk Britaniyada hukumat innovatsion klasterlarni moliyalash fondini tashkil etish uchun 30 mln. dollar ajratilgan va Edinburg, Oksford va Janubiy-Sharqiy Angliya atrofidagi hududlarni biotexnologik firmalarni joylashtirish uchun asosiy mintaqalar sifatida belgilangan. Norvegiyada hukumat "Dengiz xo'jaligi" klasterida firmalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi. Daniyada raqobatbardoshlik doirasida umummiy darajadagi 16 ta va mintaqaviy darajadagi 13 ta klaster ajratildi. Ularning har biri uchun klasterlar tarkibiga kiruvchi firmalar bilan turli darajalardagi hokimiyatlar o'rtasidagi muloqot jarayonida muayyan qo'llabquvvatlash choralari ishlab chiqildi. Avstriyada ham milliy innovatsion-tadqiqot dasturi (TIP) ishlab chiqilgan bo'lib, tadqiqot institutlari bilan sanoat sektori o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish siyosati, innovatsion dasturlardagi tartibga soluvchi to'siqlarni kamaytirish, klasterlarni ixtisoslashtirish va raqobatbardoshlik markazlarini shakllantirish uning muhim omili bo'ldi.

Bugungi kunda jahon biznesining rivojlanishida xalqaro klasterlar, shu jumladan, alohida mintaqalar doirasidan tashqariga chiquvchi klasterlar sonining tobora ko'payib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, Yevropa maqomiga ega bo'lgan ko'plab klasterlar xalqaro darajaga chiqishga intilmoqda. Bu, asosan, xalqaro va transchegaraviy loyihalarga taalluqli.


Malakatimiz milliy boyligi, shu jumladan, milliy mulkimizning muhim qismini asosiy fondlar tashkil etadi. Asosiy fondlarga xizmat davri bir yildan ortiq va qiymati 15 eng kam ish haqqidan ortiq bo'lgan mehnat vositalari kiradi va ular bajaradigan funksiyasiga qarab quyidagi guruhlariga ajratiladi: imoratlar, inshootlar, o'tkazuvchi qurilmalar, mashina va uskunalari, transport vositalari, ishlab chiqarish asbob va uskunalari, xo'jalik asbob va uskunalari, o'lchov asboblari va laboratoriya jihozlari va boshqa asosiy fondlar. Har bir momentda asosiy fondlarning har bir ob'ekti bir necha xil baholanadi. Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish jarayonini xarakterlash uchun ularni to'liq va qoldiq qiymati bo'yicha balansi tuziladi.

Yalpi qo'shilgan qiymatdan yollanma xodimlar mehnat haqqi, ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar ayrilgach, iqtisodiyot sektori, tarmog'i va korxonalarining yalpi foyda summasi hosil bo'ladi. YAlpi foyda summasidan asosiy fondlar amortizatsiyasi ayrilgach sof foyda summasi hosil bo'ladi: Umumiy ko'rinishda foydaning tashkil topishi va undan foydalanish tartibi quyidagicha



Foyda ko'rsatkichlari korxonalar faoliyatining absolyut samarasini xarakterlaydi. Foydalanilgan resurslar va joriy xarajatlar samarasini baholash uchun rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)



1-Rasm: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)⁹.

Yuqorida sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi (yillik)da ko'rsatilgan, 2013-yildan solishtirsak, 2022-yilga kelib ishlab chiqarish hajmi oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz keyingi 3 yilda yo'l qurilishiga – 9,8 trillion so'm, suv tarmoqlariga – 4,6 trillion so'm, elektr tarmoqlariga – 18,2 trillion so'm, tabiiy gaz ta'minotiga – 1,2 trillion so'm mablag' ajratdik. Bu raqamlar ushbu tarmoqlar uchun so'nggi 10 yilda sarflangan mablag'lardan bir necha barobar ko'pdir. Lekin, shunga qaramasdan, zamonaviy infratuzilma yaratish, mavjud tizimni modernizatsiya qilish uchun bundan bir necha o'n barobar ko'p mablag' talab etiladi.

Taklif va xulosalar:

Shunday qilib, sanoat iqtisodiyotida ilmiy-innovatsion klasterlardan foydalanishning xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu jarayon ba'zi mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan bo'lsa, ayrimlarida salbiy oqibatlariga ham olib keldi. Fikrimizcha, sanoat iqtisodiyotida klasterlarning tashkil etilishi va faoliyat turlaridan qat'i nazar ularning barchasi oxir-oqibatda ilmiy-innovatsion klasterlarga aylanish imkoniyatlariga egadir. Hozirgi ayni zamonda sanoati rivojlangan mamlakatlarga ta'lluqli bo'lgan ilmiyinnovatsion klasterlarni

⁹ Stat.uz



iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatish mumkin va mazkur mamlakatlarda tashkil etilgan ilmiyinnovatsiyaga asoslangan klasterlarning tizimlashtirilishi natijasida jahonda tobora rivojlanayotgan ilmiy-innovatsion klasterlarning yoʻnalishlarini aniqlashga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda xulosa shakllantirish mumkinki, mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektoridan bir boʻlgan farmasevtika sanoati tarmogʻida ham ilmiy-innovatsion klasterlarni yaratish imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunda mamlakatimizga olib kiritilayotgan investitsiya loyihalarini, birinchi navbatda ustuvor tarmoqlarga, jumladan: neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yer osti boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlari, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashga, turizm sohasini yanada rivojlantirishga qaratilishi kerak. Buning natijasida Respublikamizning rivojlanishida, yuqori bosqichlarda taraqqiy etishida zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SANOAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANITIRISHDA XORIJIY USULLARDAN FOYDALANISH KOʻNIKMA VA TAMOYILLARI Gaybullaeva Gulbaxor Maxmudovna Fargona politexnika instituti Iqtisodiyot kafedrasida oʻqituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7125740>
2. M.Sh.AHMEDOVA SANOAT STATISTIKASI
3. Yasheva G. Klasterы v belorusskoy ekonomike. // Nauka i innovatsii. 2012, № 8. S. 34-36. № 9. S. 28-30.
4. Industrial development and economic growth: Implications for poverty reduction and income inequality Matleena Kniivilä
5. Astanakulov O.T. (2020) Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati, -16 b.
6. Bodie, Zvi. (2011) Investments / Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus.—9th ed. p. cm.—(The McGrawHill/Irwin series in finance, insurance and real estate), P.994
7. Ibragimov A.K., Karimov A.A. (1999) Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. - T.: Oʻzbekiston, – 144 b.
8. Solvell O., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative Green Book, 2003.Elektronnyy resurs: <http://www.cluster-research.org>.
9. Stat.uz
10. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. (2015) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: dasrlik. – Toshkent. Baktrisa press, 88-89 – b.
11. Савитская Г.В. (2017) Экономический анализ: учебник—14-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРАМ,. –649 с.